



ERKALASH VA KICHRAYTIRISH TERMINI TURLI TILLAR IZOHIDA

Samigova Xushnuda Botirovna

Professor, Filologiya fanlari doktori

Tursunbayeva Dilnavoz Baxtiyor qizi

O'zDJTU 2-kurs magistranti

Mazkur maqola tilshunoslikda yetarlicha tadqiqot olib borilmagan erkalash va kichraytirish ma'nolarini farqlashga bag'ishlangan. Ayrim olimlar o'z ilmiy ishlarida kichraytirish va erkalashni bir- biridan ajratmay qaraydilar. A.K.Po'latov, X. Abduraxmonov, A. Rafiyev, N. Asqarovlar asosan erkalash va kichraytirish tushunchalarini bir-biridan ajratmay tadqiq qilganlar. M.I.Rasulova, D. Kazakov, O. Safarov, S.Sh. Isakova, L.L. Grigoryev, K. Banushkinlar esa erkalashni kichraytirishdan ajratgan holda izlanishlar olib borganlar. Masalan E.Qilichev kichraytirish va erkalash haqida keng fikrlarni bayon qilib o'tadi. Uning fikricha kichraytirish – erkalash shakllari ham nutq jarayonida ishlatladi. Shuning uchun ham ularning ma'nolari nutqning umumiy mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotimizda erkalash kichraytirish tushunchasidan ajratilgan holda tadqiq etiladi. Erkalash har bir tilning o'ziga xos vositalari, shakl-usullari orqali odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, narsa-hodisalarga nisbatan mehribonlik, muhabbat, nafis mehr bilan suyish va boshqa munosabatlarni ifodalasa, kichraytirish esa jonli va jonsiz predmetlarni o'lcham jihatdan qisqartirish, maydalash ma'nosini ifoda etadi. Erkalash va kichraytirishni semantik jihatdan farqlash maqsadida ikki tilda she'riy parchalardan bir necha misollar keltiramiz:

There was a little girl, and she had a little curl

Right in the middle of her forehead

When she was good, she was very, very good

But when she was bad, she was horrid.

Little Tee-wee,

He went to sea,

In an open boat;

My story's ended.

And when it was afloat,

Little girl, little girl,

Where have you been?

I have been to see grandmother

Over the green.

Once two little brown bears

Found a pear -tree full of pears;

But they couldn't climb up there

For the trunk was smooth and bare.



"If you do not soil my hair,"
Said the younger little bear,
I will serve you as a chair
And you can get the biggest pear.²

Misollardagi ajratilgan so'z va so'z birikmalar, ya'ni a little girl, little curl, two little brown bears, younger little bear kabilar kontekstda xajm jihatdan kichikligi ifodalanganini ko'rish mumkin. Ammo quyidagi misolda erkalash ma'nosini yaqqol ko'rish mumkin:


Angel Girl, you're my angel, you're my darling angel
Closer than my peeps you are to me, baby
Shorty, you're my angel, you're my darling¹

Misoldagi you're my angel, you're my darling iboralari kichraytirishni ifodalamaydi, balki unda erkalash ma'nosini kuzatish mumkin. Bu misollarda my egalik olmoshi va angel, darling so'zlari erkalash LSM tarkibiga kiruvchi so'zlardir. Quyida shu kabi yana bir misol keltiramiz:

My sweet one, I'll call you my sweet one
You're my only true sweet one
With my all, I'll call you my sweet one...
I'd travel with you
You're my sweet one²

O'zbek tilida ham erkalash va kichraytirishni bir-biridan farqlagan holda bir nechta misollar keltiramiz:

Kichkinagina minnas,
Olamni kezib tinmas.
Qopcha,
Qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha.
Kichkina hurmacha,
Og'izlari burmacha.
Pichagina bo'yи bor,
Takkakidan to'ni bor.³
-Qutqaringlar! Hey, kim bor?
Baqirib yubordi u.
Cho'pon esa iljaydi:
-Yuvvosh buzoqchang-ku, bu!
Esingdami, aprelda
Kichkina buzoqchani
Otaliqqa olganding,
Sevintirib barchani.⁴





Keltirilgan misollarda buzoqcha, pichagina, kichkina hurmacha, uncha, kichkinagina minnas, qopcha so'zlaridan predmet aynan xajm jihatdan kichraytirilib ifodalanganligini ko'rish mumkin. Kichraytirishdan farqli o'laroq, quyidagi misollar aynan erkalash ma'nosini ifoda etishini kuzatishimiz mumkin:

Onajoni yolborar:

-O'g'lonim, erkatoym...

Butun drujina uning

Ketidan yurar doim.

Akajoni singlisini

Erkalaydi: -Allayo - alla

Tashlavoray qo'g'irchoqni –

Yaramaydi, allayo-alla.

...Bo'lmay qaysar, uxlagil sal,

Bo'lib qoldi allamahal...

Gapimni uq, singilginam,

Kino ketgan oyim, dadam.

Allayo,alla.4

O'g'lonim, erkatoym, singilginam so'zлari esa erkalash ma'nolarida kelishini ko'rish mumkin. Onasi o'g'lini, akasi singlisini mehr bilan erkalab suyishi ifodalangan bu she'riy parchadagi o'g'lonim, erkatoym, singilginam so'zlaridagi grammatik vositalar ham erkalashni ko'rsatmoqda.

Bizning fikrimizcha erkalash insonlarga yaqinlik mehr-muhabbatni ifodalasa, kichraytirishda esa biror bir shaxs yoki predmetning xajm jihatidan kichikligi nazarda tutiladi. Masalan ingliz tilidagi Little boy entered the room va my little sweet baby entered the room gaplarini ma'no jihatdan taxlil qiladigan bo'lsak, birinchi gapda kichnina bola xonaga kirdi ikkinchi gapda esa mening kichik asalgina bolam xonaga kirdi kabi ma'noga egadir. Birinchi misolda bolaning kichikligi nazarda tutilmoqda, ikkinchisida esa mening va asalgina so'zлari orqali bolaga nisbatan kichraytirishga nisbatan erkalash ma'nesi kuchliroq ifodalananmoqda.

O'zbek tilida ham shu kabi jarayonni kuzatish mumkin. Qizcha bilan qizginam so'zlarida buning isbotini ko'rish mumkin. Avvalgi so'zda hech qanday erkalash ma'nosini ifodalovchi ko'rsatkichlar yo'q, faqatgina -cha kichraytirish qo'shimchasini olgan va bu so'z kichkina qiz bola ma'nosini beradi. Lekin ikkinchisida esa -gina erkalash va I-shaxs birlikdagi -m egalik qo'shimchasini olganligi sababli erkalash ma'nosini beruvchi so'z deb atash mumkin. Erkalash - inson biror insonga o'zini yaqin tutganidan, mehrini iliqligi tufayli namoyon bo'lувчи ichki bir muhabbatni so'z va xarakatlar bilan namoyon etishdir. Kelinchak va kelinginam so'zlarini gaplarda ko'radigan bo'lsak: "kelinchak beshik tebratardi" gapi bilan "kelinginam tushmagur-yey" gapidagi kelin so'zi biringchi gapda kelinning yosh ekanligi nazarda tutilsa,



14-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA

ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.12.2022



ikkinchi gapda esa kelinga bo'lgan onaning erkalash ohangi va mehr bilan aytildigani iborasi keltirilgan.

Demak, kichraytirishda narsa yoki kimsaning xajmi yoki yoshi tarafidan yosh va kichikligini bildirsa, erkalashda esa biror narsa yoki kimsaga bo'lgan yaqinlilik va mehrni ifodalash uchun qo'llaniluvchi so'z, iboralar va hatti- xarakatga aytildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Barto, Sening she'rlaring, Izd.SK Kompartii Uzbekistana, Tashkent, 1990y., 127-257 betlar, Rauf Tolib tarjimasi.
2. V. Skulte, Angliyskiy yazylk dlya detey, Izd. " Turkestan", Bishkek, 2005g., s.193-492.
3. O'zbek topishmoqlari, "O'qituvchi " nashriyoti, Toshkent, 1991y., 85-161betlar.
4. Angel Lyrics And Songs.com allthelyrics.com
5. Lawn boy my sweet one Phish Lyrics1http://skyglobe.ru/

